



Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik savodxonlikni shakllantirish



1-mavzu:
Toza havo –
bizning sog'ligimiz



1.1. Mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulotning maqsad va vazifalari	Ta'lim beruvchi faoliyati: • Bolalarga havoning borligini tajribalar orqali ko'rsatadi (shar puflash, ventilyator oldida turish, qog'oz harakati). • "Toza havo" va "iflos havo" farqini oddiy misollar orqali tushuntiradi. • Daraxtlar, gullar va tabiat havoni qanday tozalashini animatsiya yoki rasmlar orqali ko'rsatadi.	Ta'lim oluvchilar uchun kutilayotgan natijalar: • Havo ko'zga ko'rinmasa ham mavjud ekanini tushunadilar. • Toza havoning sog'liq uchun foydali ekanini aytib bera oladilar. • Ifloslanish manbalarini tanlaydilar (mashinalar tutuni, axlat yoqish, chang ko'tarilishi).
O'quv jarayoni mazmuni va mashg'ulotni amalga oshirish texnologiyasi	• Kirish – suhbat, kuzatish • Asosiy faoliyat – o'yin, tajriba • Yakun – muhokama va rag'bat	Shakl: STEAM Metod: Kuzatish, tajriba, savol-javob, Vosita: Sharlar, qog'ozlar, ventilyator, rasmlar kartochkalar, multimedia video, O'qitish sharoiti: xavfsiz tajriba zonasi, texnik vositalar bilan jihozlangan sinf

1.2. Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Kirish qismi (5 daqiqa)	Motivatsiya: Bolalarga shishirilgan shar beriladi. "Shar nima bilan to'ladi?" savoli orqali havo haqida suhbat.	Nafas olib–chiqarish mashqi: "Chuqur nafas olamiz – toza havo bizga kuch beradi."
Asosiy qism (18 daqiqa)	Tajriba 1: Qog'ozni puflash – havo harakatini sezish. Tajriba 2: Shaffof idishda changni kuzatish – iflos va toza havoni taqqoslash. Amaliy faoliyat (7–8 daqiqa):	Rasm va video: Daraxtlar havoni kislorod bilan boyitishi. Muloqot: "Toza havo nima?", "Nima havoni iflos qiladi?" - Bolalar bilan "Toza havo qoidolari" plakati yaratiladi. - Mini-o'yin: "Toza – iflos" (rasmni to'g'ri ajratish).
Yakunuy qism (7 daqiqa)	Savol–javob va refleksiya: "Bugun nimani bilib oldingiz?", "Bugundan boshlab havoni qanday asraymiz?"	Rag'batlantirish: "Yosh ekolog" yorliqlari.





Foydalanish uchun tarqatmali materiallar

“Toza va iflos havo” rasmi kartochkalari


Bolalar tasvirlarni ikkiga ajratadi:

Toza havo:

- ✓ Daraxtlar
- ✓ Gullar
- ✓ Yashil maydon
- ✓ Ochiq deraza

Iflos havo:

- ✗ Mashina tutuni
- ✗ Zavod tutuni
- ✗ Chekish
- ✗ Axlat yoqish

Toza havo		Iflos havo	
			
Daraxtlar	Gullar	Mashina tutuni	Zavod tutuni
			
Yashil maydon	Ochiq deraza	Chekish	Axlat yoqish
✓		✗	